

MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISHDA TA’LIM METODLARINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

Umarjonova Nodira Abduxamid qizi
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tayanch doktorant
nodira5655@gmail.com ORCID ID: 0009-0008-2458-2611
DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21927591>

Annotatsiya. Mazkur maqolada mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida qo‘llanilayotgan pedagogik metodlarning samaradorligi tizimli ravishda tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalar kompetensiyalarini shakllantirish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, innovatsion va an’anaviy pedagogik metodlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri baholanadi.

Kalit so‘zlar: pedagogik metodlar, texnologik ta’lim, mutaxassislik fanlari, ta’lim sifati samaradorligi, kasbiy kompetensiya.

Аннотация. В данной статье систематически анализируется эффективность педагогических методов, используемых в процессе обучения специализированным предметам. В современной системе образования актуальной проблемой считается формирование компетенций учащихся, развитие у них навыков самостоятельного и критического мышления, а также уровень профессиональной подготовки. С этой точки зрения оценивается влияние инновационных и традиционных педагогических методов на эффективность обучения.

Ключевые слова: педагогические методы, технологическое образование, специализированные дисциплины, качество и эффективность образования, профессиональная компетентность.

Abstract. This article systematically analyzes the effectiveness of pedagogical methods used in the process of teaching specialized subjects. In the modern education system, the formation of students’ competencies, their independent and critical thinking skills and the level of professional training are considered an urgent issue. From this perspective, the impact of innovative and traditional pedagogical methods on educational effectiveness is assessed.

Key words: pedagogical methods, technological education, specialized disciplines, educational quality and effectiveness, professional competence.

Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o‘qitish sifatini oshirish, talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish hamda ta’lim jarayonini mehnat bozori talablariga moslashtirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o‘qitishda an’anaviy va innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish samaradorligini ilmiy-amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqotda an’anaviy va innovatsion pedagogik metodlarning ta’lim jarayoniga ta’siri qiyosiy tahlil qilinib, ularning talabalarning bilish faolligi, mustaqil ta’lim ko‘nikmalari, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, shu bilan bir qatorda, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni baholanadi. Mazkur metodlarning o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilishi ta’lim samaradorligini oshirishi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash hamda ta’lim natijalarining barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi asoslanadi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga maqsadli joriy etish hamda talabalarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy va metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda an’anaviy va innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish masalasi pedagogika fanining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ta’lim samaradorligini oshirish, talabaning faol o‘quv subyekti sifatidagi rolini kuchaytirish hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar bugungi kunda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda ta’lim jarayonini talaba faolligiga asoslangan holda tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. John Dewey ta’limning samaradorligi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lash orqali ta’minlanishini asoslagan. Uning tajribaga asoslangan ta’lim konsepsiyasi talabaning mustaqil fikrlashi, muammoni tahlil qilishi va amaliy faoliyat orqali bilimni

egallashini ta'limning asosiy sharti sifatida talqin etadi. Lev Vygotsky tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvga ko'ra, bilim ijtimoiy hamkorlik va muloqot jarayonida shakllanadi. Olimning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi o'qituvchining pedagogik ko'magi hamda hamkorlikdagi ta'lim faoliyati murakkab kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Jerome Brunerining kashfiyot orqali o'qitish konsepsiyasi talabalarning bilimlarni mustaqil izlanish, tahlil va xulosalash asosida o'zlashtirishini qo'llab-quvvatlaydi. Mazkur yondashuv innovatsion pedagogik metodlarning nazariy poydevorlaridan biri bo'lib, muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi va tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining rivojlanishiga metodologik asos yaratgan. Benjamin Blum ishlab chiqqan ta'lim maqsadlari taksonomiyasi esa o'quv natijalarini faqat bilimni eslab qolish bilan cheklamasdan, uni tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yangi bilim yaratish bosqichlarida rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv zamonaviy oliy ta'limda qo'llanilayotgan interfaol metodlarning didaktik samaradorligini baholashda muhim metodologik asos hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham oliy ta'lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalalari bo'yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda interfaol metodlar, raqamli ta'lim vositalari va talaba markazli o'qitish texnologiyalarining afzalliklari yoritilgan bo'lsa-da, mutaxassislik fanlarini o'qitishda an'anaviy va innovatsion metodlarning integratsiyalashgan holdagi samaradorligini kompleks baholash masalasi hali ham chuqur ilmiy tahlilni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot an'anaviy va innovatsion pedagogik metodlarning o'zaro uyg'unlashuvi mutaxassislik fanlarini o'qitish samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishini pedagogik jihatdan asoslash, ularni qo'llashning didaktik shart-sharoitlarini aniqlash hamda oliy ta'lim amaliyoti uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar va mehnat bozori talablarining tez o'zgarishi sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida yangi vazifalar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, mutaxassislik fanlari — ya'ni talabaning kelajak kasbiy faoliyatini bevosita belgilovchi fanlarni o'qitish jarayoni an'anaviy bilim berishdan kompetensiyaga yo'naltirilgan, amaliy va moslashuvchan modelga o'tishni talab etmoqda. Shu bois, mutaxassislik fanlarini o'qitishni transformatsiya qilish zamonaviy ta'lim islohotlarining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi:

1. Ta'lim transformatsiyasi tushunchasi va uning mohiyati faqat o'quv reja yoki texnologiyani almashtirish emas, balki ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, baholash tizimi va o'qituvchi—talaba munosabatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish jarayonidir.

2. Mutaxassislik fanlari kontekstida transformatsiya bilimni uzatishdan — bilimni yaratishga, nazariyani amaliy faoliyat bilan integratsiya qilishga, o'qituvchini bilim manbai emas, balki yo'naltiruvchi (fasilitator) sifatida ko'rishga asoslanadi.

3. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda an'anaviy yondashuvning cheklovlari

An'anaviy yondashuvda ko'pincha:

- ma'ruza markaziy o'rinda bo'ladi;
- talabalar passiv tinglovchi sifatida qatnashadi;
- baholash asosan yakuniy imtihon va testlar bilan cheklanadi;
- real kasbiy vaziyatlar yetarlicha modellashdirilmaydi.

Natijada:

- talabalarda amaliy ko'nikmalar yetarli shakllanmaydi;
- mustaqil fikrlash va muammo yechish qobiliyatlari sust rivojlanadi;
- bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvi qiyinlashadi.

Olib borilayotgan tadqiqotimizda, aynan yuqorida keltirilgan hamda sodir bo'lishi ehtimoli yuqori bo'lgan bir necha muammolarning yechimi sifatida integratsiyaviy yondashuvni taklif etdik. Bunda bo'lajak mutaxassislarni axborot texnologiyalari bilan ishlay olish malakalarini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj ham inobatga olinib, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi intellektual ta'lim resurslarini joriy etish va mutaxassislik fanlari bo'yicha mustaqil tarzda innovatsion o'qitish vositalarini ishlab chiqarish qobiliyatiga egaligining ahamiyatiga ham e'tibor qaratilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mutaxassislik fanlarini o'qitishda faqat an'anaviy yoki faqat innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish ta'lim jarayonining barcha didaktik maqsadlarini to'liq ta'minlay olmaydi. An'anaviy metodlar nazariy bilimlarni tizimli va izchil o'zlashtirish, fundamental tushunchalarni

shakllantirish hamda o‘quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda bayon etishda yuqori pedagogik ahamiyat kasb etsa, innovatsion metodlar talabalarining bilish faolligini kuchaytirish, mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va kasbiy qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishda samaraliroq ekanligi pedagogik nazariyalarda asoslab berilgan. Shu bilan birga, pedagogik tahlil natijalari mutaxassislik fanlarining mazmuni, o‘quv maqsadi va shakllantiriladigan kasbiy kompetensiyalarni hisobga olmagan holda innovatsion metodlarni qo‘llash kutilgan natijani bermasligini ko‘rsatadi. Pedagogik metodning samaradorligi uning innovatsionligi bilan emas, balki o‘quv maqsadi, ta’lim mazmuni, talabalar tayyorgarlik darajasi hamda o‘quv jarayonining tashkiliy xususiyatlariga mos tanlanishi bilan belgilanadi.

Mazkur yondashuvning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, u mutaxassislik fanlarini o‘qitishda ta’lim mazmuni va pedagogik metodlar o‘rtasidagi didaktik uyg‘unlikni ta’minlash orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga, talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni izchil amalga oshirishga metodik asos yaratadi.

Olib borilgan nazariy tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, mutaxassislik fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirish pedagogik metodlarning alohida qo‘llanilishi bilan emas, balki ularni ta’lim maqsadi, o‘quv mazmuni va kutilayotgan natijalarga mos ravishda integratsiyalash orqali ta’minlanadi. Aynan shu jihat tadqiqotning mualliflik yondashuvini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Biggs J., Tang C. *Teaching for Quality Learning at University*. 4th ed. Maidenhead: Open University Press, 2011. – 389 p.
2. Bloom B. S. *Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: Cognitive Domain*. New York: David McKay Company, 1956. – 207 p.
3. Bruner J. S. *The Process of Education*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – 97 p.
4. Dewey J. *Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education*. New York: The Macmillan Company, 1916. – 434 p.
5. OECD. *The Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030*. Paris: OECD Publishing, 2019.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida: PF–60-son Farmon, 2022-yil 28-yanvar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida: PF–158-son Farmon, 2023-yil 11-sentabr.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637-son. Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida. Toshkent: amaldagi me’yoriy hujjat.
10. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 63 p.
11. UNESCO. *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 184 p.
12. Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.